

6-Ilova

Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajasini aniqlash uchun savollar

1. Kasb-hunar ta'limini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
2. Kasb-hunar ta'limini boshqarishga nimalar kiradi?
3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy asoslariga nimalar kiradi?
4. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning ilmiy asoslariga nimalar kiradi?
5. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish tizimi qanday?
6. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlar ishining mazmuni nimalardan iborat?

7-Ilova

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari

O'zbekistonda **boshqarishning ilmiy asoslari** paydo bo'lishi o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib, uning asosiy tamoyillari XIII-XIV asrlarga kelib O'rta Osiyo Amir Temur hukmronligi davrida to'la shakllangan edi. Bu davrda yuqori intizom, ijtimoiy himoya va oliy darajadagi boshqarish tizimiga ega bo'lgan davlatning bunyodga kelishi o'rta asr davridagi boshqarish uslublari o'zida eng ilg'or g'oyalarni mujassamlashtirilganidan darak beradi. Boshqaruv tizimining samarali tashkil etilishi, uning insonparvarlik, kasbiy va ratsional usul bilan tashkil etilishi, uning negizida inson manfaatlarini yotganligi, davlat siyosatining boshqaruvga ijobiy ta'siri dunyoda buyuk davlat paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Ma'lumki, boshqarish deb, ko'zda tutilgan maqsad uchun qilinadigan harakat tushiniladi. Har qanday boshqarish asosida ko'zda tutilgan maqsad yotadi. Boshqarishda boshqaruvchi tizim va boshqariluvchi tizimga amal qilinadi. Shunday ekan boshqarish biror bir tizimni ikkinchi bir tizimaga o'zgartirishga aytiladi. Boshqaruvchi tizim boshqariluvchi tizimga ta'sir ko'rsatishda amal qilishi kerak bo'lgan qonun qoidalarga boshqarish tamoyillari (prinsiplari) deb ataladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda boshqarishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin va u tamoyillar bozor iqtisodiyoti sharoitida ham amal qiladi:

1. Demokratik tamoyili.
2. Siyosiy rahbarlik tamoyili.
3. Xo'jalikni rejali yuritish tamoyili.
4. Ilmiylik tamoyili.
5. Kadrlarni to'g'ri tanlash tamoyili.